

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
MINTAQAVIY BO‘LIMI  
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN  
AKADEMIYASI  
AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2024-6/4**

**Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi  
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

**Xiva-2024**

**Bosh muharrir:**

*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.*

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

*Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.*

**Tahrir hayati:**

*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.*  
*Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.*  
*Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.*  
*Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.*  
*Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.*  
*Ametov Yakub Idrisovich, d.b.n., prof.*  
*Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.*  
*Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.*  
*Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.*  
*Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.*  
*Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.*  
*Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.*  
*Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.*  
*Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.*  
*Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.*  
*Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.*  
*Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.*  
*Jumanov Murat Arepbayevich, d.b.n., prof.*  
*Kadirova Shaxnoza Abdaxalilovna, k.f.d., prof.*  
*Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.*  
*Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.*  
*Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc*  
*Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.*  
*Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.*  
*Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d.*  
*Lamers Jon, q/x.f.d., prof.*  
*Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.*  
*Maxmudov Rauffjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.*  
*Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.*  
*Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.*

*Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.*  
*Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.*  
*Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.*  
*Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.*  
*Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.*  
*Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.*  
*Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.*  
*Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.*  
*Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.*  
*Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.*  
*Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.*  
*Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.*  
*Safarov Alisher Karimdjaniyevich, b.f.d., dos.*  
*Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.*  
*Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.*  
*Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.*  
*Tojibayev Komiljon Sharobidinovich, b.f.d., akad.*  
*Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.*  
*Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.*  
*Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.*  
*Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.*  
*Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.*  
*Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.*  
*O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.*  
*O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.*  
*Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.*  
*Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.*  
*Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.*  
*Xudoyberganov Oybek Ikromovich, PhD, k.i.x.*

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№6/4 (115), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2024 y. – 466 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

<b>Saparova Sh.R.</b> Bolalar adabiyotini o'qitishda Sadridin Ayniy hayoti va ijodiga murojaat	263
<b>Sapayeva V., Maxmudov R.</b> Qadimgi yunon-rim tillaridan o'zlashgan ayrim arxitektura-qurilish atamalarining etimologik tadqiqi	265
<b>Saydalieva A.E.</b> Irony and literary theory	268
<b>Seytniyazova G.M.</b> Shoir S.Ibragimov she'rlarida tasvir va ularning badiiy tarjimalarda takrorlanishi	270
<b>Shaxobiddinova Sh.M.</b> Asosiy tushunchalarning kontseptual maydonlarini modellashtirish	276
<b>Sheraliyeva M.I., Maxmudjonova N.</b> Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida qo'llanilgan sinonimlar tasnifi	278
<b>Shukurova S.</b> Psychological and social aspects of the tragedy of suicide in english and uzbek literature	280
<b>Sindorov L.K.</b> Oybekning "Navoiy" rominidagi oshxona buyum va jihozlariga oid leksemalar	283
<b>Sobirova D.R.</b> Tibbiy reklamalarda lokutiv nutqiy akt	286
<b>Sotvoldiyeva I.</b> Ingliz va o'zbek tillaridagi kollokvializmlarning qiyosiy tahlili	288
<b>Suvanova M.</b> Marosimlarga oid etnografik lakunalar lisoniy birlik sifatida	291
<b>Tadjimatova G.Sh., Arslanbekova Sh.D.</b> Language policy and the emergence of lingua franca among young language learners	294
<b>Teshaboyev D.R.</b> Ilmiy nutq uslubida qo'llanuvchi havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplar	297
<b>Teshaboyev D.R.</b> Navoiy asarlarida qo'llangan "shaxs" arxisemali leksemalar tadqiqiga doir	299
<b>Toliyeva Sh.I.</b> Lingvistik ekspertizaning tasnifi masalasi	302
<b>Toshboyeva O.E.</b> Tilshunoslikda terminologiya va nominatsiya: nazariy asoslar va farqli jihatlar	305
<b>Turdimurodova U.</b> Linguistic and cultural features of alternative phrases in english and uzbek languages	308
<b>Tuxtazarova S.U.</b> Konsept - olamning konseptual manzarasining birligi sifatida	311
<b>Tuxtazarova S.U.</b> Linguaculturology: bridging linguistics and culture	314
<b>Tuxtasinova Z. M.</b> Haqoratning konsept sifatida voqelanishi	316
<b>Uluqov N., Jalilova M.</b> "Boburnoma"da Namangan viloyati toponimiyasi talqini	319
<b>Uluqov N., Xalilova N.</b> Qo'qon xonligiga oid tarixiy ayollar ismlarining lisoniy xususiyatlari	323
<b>Umarova I.A.</b> Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida tarixiy haqiqat va badiiylilik	326
<b>Vaxobjonova R.</b> Publitsistik uslubning leksik-semantik xususiyatlari	329
<b>Xakimov A.A.</b> Matn ustida ishlash yo'sinlari	332
<b>Xalilova D., Qurbonov J.</b> Ertaklarning tarkibiy va semantik xususiyatlari	334
<b>Xamidova N.I.</b> Eksperimental fonetika: xususiyatlari va imkoniyatlari	336
<b>Xamidova N.Yu.</b> Fransuz va o'zbek tillaridagi antonim so'zlarning qiyosiy tahlili	341
<b>Xamroyeva D.J.</b> Sarguzasht adabiyotida anaxroniyaning ko'rinishlari	344
<b>Xidirov O.J.</b> O'zbek tili korpusida so'z birikmalarini sintaktik teglash	346
<b>Xolmuradova J.I.</b> Shevaga xos so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra farqlanishi	349
<b>Xudoyberdiyeva G.Sh.</b> Ingliz adabiyoti adiblarining fantastik janrdagi asarlarida psixologik mahorat	353
<b>Yuldashev J.U.</b> Said Ahmad romanlarida o'xshatishlar lingvopoetikasi	356
<b>Yuldasheva M.A.</b> Badiiy adabiyotda pretsedent nomlar va ularning matn talqinidagi o'rni	359
<b>Yuldasheva M.A.</b> Exploring the role and impact of intertextual devices in literary texts	361
<b>Yuldasheva M.A.</b> Implicit meanings in english proverbs	364
<b>Yusupova H.U.</b> Specific features of bildungsroman in "The kiterunner" by Khaled Hosseini	368
<b>Zarpillayeva Sh.Z.</b> "Sabo va Samandar" romanida mumtoz adabiyot an'analari	371
<b>Ziyadullayeva M.T.</b> Lexical-semantic features of addressing women in english and uzbek languages	373
<b>Абдувахובה Д.Э.</b> Лексическая многогранность и богатство русского языка	376
<b>Абдуллаева Б.К.</b> Образы влюбленных и соперника	378
<b>Абдуллаев Х.</b> Раскрытие экологических метафор: исследование синергии языка и экологии посредством эколлингвистики	382
<b>Агзамходжаева Ш.С.</b> Образ влюбленного в суфийском учении Алишера Навои	384
<b>Акбарходжаева Ф.А.</b> Тиббиёт терминларининг белгили критериялари: шаклланиши ва ривожланиши	388
<b>Алиева З.Р.</b> Идеографический словарь как коммуникативная система и справочник для билингвов	392

## TIBBIY REKLAMALARDA LOKUTIV NUTQIY AKT

*D.R.Sobirova, PhD, doktorant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** Jahon tilshunosligida antroposentrik paradigmaning yuzaga kelishi tilning serqirralik tabiatini yangicha tahlillar orqali asoslash uchun imkon yaratdi. Bugun tilshunoslik olamida muloqot ishtirokchilarining o'ziga xos xususiyatlarining muloqotda aks etishi, shu bilan birga, nutqiy aktlarda o'z ifodasini topishi sir emas. Struktural jihatdan nutqiy aktlar lokutiv, illokutiv hamda perlokutiv nutqiy akt kabi turlarga bo'linadi. Ushbu maqolada nutqiy aktning lokutiv nutqiy akt va uning tarkibiy tuzilishi xususida so'z boradi. Lokutiv aktning fonetik, fatik va retik akt kabi ko'rinishlari tibbiyotga oid reklamalar misolida yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** nutqiy akt, tibbiy reklama, lokutiv akt, fonetik akt, fatik akt, retik akt.

**Аннотация.** Появление антропоцентрической парадигмы в мировой лингвистике позволило обосновать многогранность языка посредством нового анализа. Сегодня в мире языкознания не секрет, что характеристики участников диалога отражаются в диалоге и в то же время выражаются в речевых актах. По структуре речевые акты делятся на локативные, иллокутивные и перлокутивные речевые акты. В данной статье говорится о локативном речевом акте и его структурной структуре. На примере медицинской рекламы поясняются фонетическая, фатическая и риторическая формы речевого акта.

**Ключевые слова:** речевой акт, медицинская реклама, локативный акт, фонетический акт, фатический акт, риторический акт.

**Abstract.** The emergence of the anthropocentric paradigm in world linguistics made it possible to justify the multifaceted nature of language through new analyses. Today, in the world of linguistics, it is no secret that the characteristics of the participants of the dialogue are reflected in the dialogue, and at the same time, they are expressed in speech acts. Structurally, speech acts are divided into locutive, illocutionary and perlocutionary speech acts. This article talks about the locative speech act and its structural structure. The phonetic, phatic, and rhetorical forms of speech act are explained on the example of medical advertisements.

**Keywords:** speech act, medical advertisement, locutive act, phonetic act, phatic act, rhetorical act.

**Kirish.** Ma'lumki, jahon tilshunosligida nutqiy akt masalasi uzoq yillardan buyon antroposentrik tilshunoslik vakillarining tadqiq manbai bo'lib kelmoqda. Nutqiy akt – so'zlovchining ma'lum bir nutqiy vaziyatda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir [3, 126]. Struktural xususiyatlariga ko'ra nutqiy aktlarning lokutiv, illokutiv, perlokutiv kabi turlari mavjudligini pragmatik tilshunoslik vakillari qayd etadilar. Nuktadon olim Sh. Safarov nutqiy aktning har uchala ko'rinishini ketma-ket bosqichma-bosqich amalga oshiriluvchi harakatlar deya baholaydi [2, 56]. «Pragmalingvistika asoslari» darsligi mualliflari M. Hakimov va M. Gaziyevalar esa lokutsiya, illokutsiya, perlokutsiyalarni bir paytning o'zida voqelanuvchi harakatlar deya hisoblaydilar [1,160]. Fikrimizcha, nutqiy aktlar haqiqatda, bosqichma-bosqich emas, bir paytning o'zida namoyon bo'ladi. Boisi jamiki nutqiy aktlarda lokutiv akt har doim ham yuzaga chiqmasligi mumkin. Matn talaffuz qilinmasa ham (yozma matnlarda lokutsiya bo'lmasa-da), unda illokutsiya va perlokutsiya o'z vazifasini bajaradi. Agar nutqiy harakatlar bosqichma-bosqich bajarilganda dastlabki nutqiy akt (lokutiv nutqiy akt) voqelanmasa, keyingi bosqichlar (illokutsiya va perlokutsiya)ni yuzaga chiqarishning imkoni bo'lmas edi. Lokutiv nutqiy akt televideniye, radio orqali e'lon qilinayotgan og'zaki tibbiy reklamalarda namoyon bo'ladi. Internet orqali berib borilayotgan og'zaki (reklama matnining talaffuz qilinishi) reklamalarda ham lokutsiya mavjud. Biroq hech bir talaffuzsiz, yozma shaklda e'lon qilinayotgan gazeta, jurnal, shuningdek, internet reklama(faqat yozma reklama)larda lokutiv akt voqelanmagan bo'ladi. Bunday xulosaga kelishimizning bosh sababi bir tomondan, lokutiv aktning talaffuz jarayoni bilan bog'liqligi bo'lsa, ikkinchi tomondan Sh.Safarovning quyidagi fikrlaridir: «Biz muloqot jarayonida mazmundor lisoniy kalimani yaratamiz va uni talaffuz qilish yo'li bilan nutqiy faoliyat bajaramiz, xuddi shu faoliyat ijrosi lokutsiya yoki

lokutiv akt (locutionary act)dir. Agarda biror bir sabab bilan (tilni bilmaslik, gung bo'lish) mazmundor gap tuzilmasa va u talaffuz etilmasa, lokutiv harakat yuzaga kelmaydi [2, 56]».

**Asosiy qism.** Tarkibiy tuzilishiga ko'ra lokutiv nutqiy akt fonetik, fatik va retik aktlardan tashkil topadi. Fonetik aktda nutqda mavjud birliklar fonetik me'yorlarga muvofiq to'g'ri talaffuz etilishi muhim sanaladi. Bu orqali o'z navbatida tovush, so'z va qurilmalarni to'g'ri talaffuz qilish vazifasi bajariladi.

*Surunkali charchoq, asabiylashish, uyquning buzilishi, tez-tez nafas olish yo'llari kasalliklariga chalinish bular ehtimol D vitamini yetishmasligi belgisi bo'lishi mumkin. Quyosh nuri yordamida organizmdagi D vitamin miqdorini maqbul darajada ushlab turish mumkin. Ammo quyosh nuri ostida sayr qilishning o'zi yetarli emas. Ammo kuniga bir tomchi akvadetrim qabul qilish yetarli. D vitamining yetishmasligi kuzatilishi mumkin bo'lgan alomatlarining oldini olish uchun har kuni akvadetrimdan bir tomchidan ichish tavsiya etiladi. Akvadetrim bilan ko'proq kuch va g'ayratga ega bo'ling! («Akvadetrim» dori vositasi reklama matnidan).*

Yuqoridagi tibbiy reklamadagi fonetik aktda nutq tovushlari va bo'g'in kabi segment birliklar hamda urg'u, ohang, melodika, pauza kabi supersegment birliklar fonetik me'yorlarga amal qilingan holda voqelangan. Qayd etish lozimki, ayrim hollarda tibbiy reklamalardagi fonetik aktda tovush, so'zlarni talaffuz qilishda me'yor buzilishi mumkin:

*Faqat hozir emas,  
Faqat hozir emas,  
Faqat hozir emas,  
Yo'q, yo'q, yo'q,  
Faqat hozir emaaaas!*

*Diareya kutilmagan mahalda yuzaga kelishi mumkin. Yaxshiyam Smekta bor. Diareyani to'xtatishga va davolashga yordam beradi. («Smekta» dori vositasi reklama matnidan).*

Tibbiy reklamada so'nggi «emas» birligidagi «a» tovushi (fonostilistik vosita) cho'zib talaffuz qilingan. Bu holat reklama roligidagi qahramonning diareyadan aziyat chekkanini ko'rsatish va uning bu holatini adresatlarga ta'sirchan yetkazish uchun xizmat qilgan. «Pragmalingvistika asoslari» darsligi mualliflari fikriga ko'ra, «... obrazning emotsional holatini ko'rsatish maqsadida tovushlar talaffuzining me'yoriy holati buziladi. Bunday usul obrazning ruhiy holatini aniq tasvirlash maqsadida qo'llanadi [1, 152]». Qolaversa, mazkur reklamada erkak adresantning tanlangani hamda uning yo'g'on tovushi reklamaga adresatlar e'tiborini jalb qilishga xizmat qilgan.

Fatik aktning o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda nutqiy faoliyatning tilda mavjud bo'lgan fonetik, leksik va grammatik me'yorlarga amal qilgan holda tuzilishi e'tiborga olinadi. Tibbiy reklamalarda ham fatik akt xususiyatlari inobatga olinishi muhim sanaladi:

*MEN oltoy nektari konsentrlangan sharbatdan tayyorlangan suyuq oziq-ovqat mahsuloti bo'lib, uning tarkibiga tabiiy lazzat hosil qiluvchi moddalar qo'shilgan. Oltoy o'lkasining tog'li hududlaridagi shifobaxsh o'simliklar yig'indisidan tarkib topgan MEN mahsuloti inson organizmi uchun foydali ozuqa hisoblanadi. Mahsulotning tarkibi tabiiy o'simliklardan, jumladan, suv ekstrakti, moychechak guli, qizilmiya ildizi, qora smarodina bargi, otquloq o'ti, o'pka o'ti, kastoreum, pantogematogen fruktozadan iborat. MEN o'zgarmas tabiiy shaklga ega bo'lib, qonga tez kirib boradi. Peshob naychalarining yallig'lanishini bartaraf etishga yordam beradi. Tos a'zolarida qon aylanishini oshiradi, gormonal fonni normallashtiradi. MEN mahsuloti erkaklarda prostata bezi patologik holatlarini oldini olishda mushak hamda yog' hujayralarining fiziologik muvozanatini me'yorga keltirishga yordam beradi. MEN me'daga kuch beradi. Surunkali gastritlarda, xolestitsidda, o't yo'llari dispenziyasida, surunkali gepotitlarda, oshqozon yarasida, tish sarg'ayishida, asab faoliyati, nafas yo'llari va shamollashlarni bartaraf qilishga ko'maklashadi. («MEN» dori vositasi reklama matnidan).*

Yuqoridagi tibbiy reklamada fonetik, leksik va grammatik me'yorlarga amal qilingan.

She'riy nutq shaklidagi reklama matnlari talaffuzida gap bo'laklari tartibi o'zgaragan bo'ladi. Aniqrog'i, inversiya ko'rinishida namoyon bo'ladi:

*Agar og'riqlar nogahon asir etsa seni bir zumda,  
Rejalarni barbod etmoqchi bo'lsa shunday zo'r kunda,*

*Tish og'rig'i, yuqori harorat,  
Bosh og'risa, tinmasdan bir fursat  
Qiynasa gar beldagi dard,  
Bo'g'imlarda og'riqli harakat,  
Bormikin bu dardlarga biror bir malham  
Balki sizga beradi yordam  
Eslab qoling, uning nomin har dam  
Siz bilgan Kyupen!*

(Agar og'riqlar nogahon bir zumda seni asir etsa, shunday zo'r kunda rejalarni barbod etsa, tish og'rig'i, yuqori harorat, bosh bir fursat tinmasdan og'risa, beldagi dard, bo'g'imlardagi og'riqli harakat qiynasa, bu dardlarga biror bir malham bormikan? Balki, sizga siz bilgan Kyupen yordam berar. Uning nomini har dam eslab qoling).

M. Hakimov va M. Gaziyevalarning fikriga ko'ra, inversiya fatik nutqiy akt uchun me'yoriy holat hisoblanadi [1, 153].

Retik aktda lokutsiya adresant tomonidan mazmunan tushunilishi muhim, ya'ni bunday aktda ko'chirma gapga xoslik kuzatiladi. Quyida keltirilgan tibbiy reklamadan olingan parchalarni kuzatamiz:

*Biz ayollar bu kunlarda hech nimani his etishni istamaymiz...* («Always» gigiyenik vositasi reklama matnidan).

*«Bu kunlar» qizlarga o'zlarini erkin his qilishlariga imkon bermaydi deyishadi* («Kotex» gigiyenik vositasi reklama matnidan).

Dastlabki reklama parchasida fatik akt namoyon bo'lgan. Boisi nutqiy faoliyatda fikr to'g'ridan to'g'ri (istamaymiz fe'li orqali), grammatik qoidalarga mos ravishda shakllangan. Ikkinchi nutqiy faoliyat retik aktga daxldor. Chunki ma'lum bir nutqiy faoliyatdan anglashilgan mazmun (deyishadi fe'li orqali) nutqda o'z aksini topgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, lokutiv akt fonetik, fatik va retik kabi aktlardan tarkib topadi. Tibbiy reklama matnlarning og'zaki ko'rinishida (radio va televediniye orqali namoyish etilayotgan tibbiy reklamalarda) lokutiv aktning barcha tarkibiy qismlari namoyon bo'ladi. Fikrimizcha, yozma ko'rinishdagi tibbiy reklamalarda tallaffuz ishtirok etmagani bois lokutiv akt voqelanmaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ҳақимов М., Газиева М. Прагмалингвистика асослари. Дарслик. Тошкент, – 2020.
2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 318 б.
3. Sobirova D.R. Tibbiy reklamalarda nutqiy aktning voqelanishi. Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№10/4 (107), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. Б. 126-128.

UO'K: 811.111.1:87'9(575.1)

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI KOLLOKVIALIZMLARNING QIYOSIY TAHLILI

*I.Sotvoldiyeva, doktorant, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi kollokvializmlarning leksik-semantik jihatlari, hamda ularning o'xshash va farqli tomonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, so'zning adabiy til hamda so'zlashuv tilidagi lug'aviy ma'nolari o'rtasidagi munosabatlarni aniq misollar yordamida ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** so'zlashuv tagtili, kollokvializm, leksik-semantik variant, sinxron aloqa, semantik komponent, semantik ierarxiya, arxisema, semantik sinf.

**Аннотация.** В данной статье анализируются лексико-семантические аспекты разговорной речи, их сходства и различия в английском и узбекском языках. Кроме того, на конкретных примерах изучается соотношение значения слова в литературном и разговорном языке.

**Ключевые слова:** разговорный субъязык, коллоквиализм, лексико-семантический вариант, синхронная коммуникация, семантический компонент, семантическая иерархия, архисема, семантический класс.

**Abstract.** This article analyses the lexical-semantic aspects of colloquialism, their similarities and differences in English and Uzbek. Moreover, the relationship of the word meaning between the standard and colloquial language is studied using specific examples.